O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY KITOB PALATASI

*Vatan yagonadir, Vatan bittadir!*

# Tong YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan ISSN – 2010-6092

2009-yil 12-yanvar N:2 (66699)





*Archa bayram zo'r bo'ldi,*
*Ta'tildan ko'ngil to'ldi.*





*Ko'plab qo'shiqlar aytdik,*
*Maktab bag'riga qaytdik.*



Husanboy AVVALOV olgan suratlar

*Toshkentning 2200 yilligiga*



## POYTAXT MADHI

O'ngga boqsang, bir bo'ston
So'lga boqsang, bir bo'ston.
Alloh nazari tushgan,
Poytaxti O'zbekiston.
Bunda bilim gulshani,
Go'zalliklar bo'stoni.
Jamul-jam erur unda,
Taraqqiyot maskani.
O'n ikki darvozasin,
Butun dunyo biladi.
Yuksak mehmondo'stligin,
Aytmasa ham bo'ladi.
Osmono'par binolar,
Teatr-u muzeylar,
Bahri dilingni ochar.
Beqiyos bu bozorlar,
Suv sepilgan ko'chalar.
Misli durdek yarqiroq,
Kezar hayot karvoni.
Turfa xil yo'lovchilar
Sokin tunda sayr eting.
Tengsiz xiyobonlarni
Misli kunduz his eting.
Bebaho bu joylarni,
Non shahri va gul shahri.
Har bir o'zbekning faxri,
Ko'z-ko'z qilsa arziydi,
Toshkent – ulug'lar shahri.

***Madina MIRZAQOBILOVA,***
***Uchtepa tumani O'zDJTU qoshidagi akademik litseyning 3-bosqich talabasi***

## QISHLOQDAGI TENGDOSHIM, SENGA HAVAS QILAMAN



***Mana, Yurtboshimiz e'lon qilgan «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» boshlandi. Bu yil qishloqdagi tengdoshlarimiz uchun juda quvonchli kelishi aniq. Axir, endi viloyatlarda qanchadan-qancha yangi ishlar amalga oshiriladi. To'g'risini aytsam, mening ularga juda havasim kelyapti. Xo'sh, ularning o'zlarichi, bu yilni qanday qarshi olishdi?!***

*Zuhra ZUFAROVA:* Men Toshkent viloyatining Toshkent tumanida yashayman. Bu yil tumanimizda juda katta obodonlashtirish ishlarining olib borilishi rejalashtirilayotgan ekan. Albatta, taraqqiyot ilm-fan sohasini ham chetlab o'tmaydi. Biz yoshlarning bilim olishimiz-u o'z iqtidorimizni namoyon etishimiz uchun bu yil ham yangi imkoniyatlarni yaratib, o'tgan yilimizning mantiqiy davomi bo'ladi, degan umiddaman.

*Dilshod BERDIQULOV:* Men Samarqand viloyatining Jomboy tumanida tug'ilganman. Qishlog'imiz juda ko'rkam, fayzli. Bu yilning qishloqlarimiz taraqqiyoti uchun bag'ishlanganidan xursand bo'lib ketdim. Hozir Toshkentdagi nufuzli kollejlardan birida tahsil olmoqdaman. Qishloqlardagi o'quv maskanlari ham poytaxtdagilardan qolishmaydigan bo'ladi.

*Nargiza ERGASHEVA:* Jizzax viloyatining Zarbdor tumanini yaxshi bilasiz-a? Men shu yerda tug'ilib o'sganman. Bu yil imkoniyatlarimiz rosa kengayadigan bo'ldi-da! Darslardan so'ng zo'r sport majmualariga borib shug'ullanishimiz yoki katta kutubxonadan istagan kitobimizni olishimiz mumkin bo'ladi. Qishlog'imiz taraqqiyoti bilan birga bizning o'qishdagi yutuqlarimiz ham ko'payib borishi kerak.

*Tengdoshimiz Nargiza juda to'g'ri gapni aytdi. Haqiqatdan, endi barchamiz bu imkoniyatlarga munosib bo'lib, qishloqlarimiz demakki, butun yurtimizning taraqqiyoti uchun hissa qo'shishimiz darkor.*

***Durdona MAQSUDOVA,***
***Respublika rassomchilik kolleji talabasi***

## VIJDONLI BOLA

Aziz tengdoshim, siz vijdon so'zini qanday tushunasiz? Menimcha, vijdon eng oliy tuyg'u. U insonni to'g'ri yo'lga boshlab turadi. Lekin ba'zi bolalar vijdonlariga quloq solmay, yomon ishlarni qilib qo'yishadi. Masalan, bir do'stimizning narsasini olib qo'ysak, so'ng u qidirayotganini ko'rib turib indamasak, vijdonsiz bo'lib qolamiz. Vijdonli bola nohaq ishlarga jim qarab tura olmaydi, yuragi qiynaladi. Xato qilib qo'yganida ham tezda kechirim so'raydi. Jaloliddin Rumiy bobomiz «Vijdoning quli bo'lgin, irodang begi», degan ekanlar.

***Durdona BAHODIROVA,***
***Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 23-ixtisoslashgan maktab o'quvchisi***

## USTOZLARNI CHARCHATMANG!



Biz ustozlarimizni qanchalik hurmat qilamiz? Ularning gaplarini ikki qilmay, yaxshi o'qib, o'qituvchilarimizga rahmatlar yog'dirsakkina biz ularni chinakkam hurmat qilgan bo'lamiz. Biz ustozimiz Ro'ziqul aka Otamurodovni jonkuyarliklarini juda qadrlaymiz. Ularni hecham xafa qilgimiz kelmaydi. Shuning uchun doimo uy vazifalarini bajarib, ortiqcha sho'xlik qilmaymiz. Ustozlarni charchatib qo'ymasligimiz kerak-da!

***Turkiy tilni Navoiy dunyolarga tanitgan,***
***Qodiriy bobom esa «O'tkan kunlar»ni bitgan,***
***Shulardan saboq berib, ilm sari boshlaysiz,***
***Yuzingiz yorug' doim, mag'rur qadam tashlaysiz.***

***Zarkumush O'NGBOYEVA,***
***Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 151-maktabning 9-«A»sinf o'quvchisi***

## FOYDALI IXTIRO



Farg'ona tumanidagi 44-maktabning 7-sinf o'quvchisi Shermat Ostanqulov o'zi yaratgan «Zararli gazlarni tozalash» inshoot qurilmasi bilan respublika «O'quvchi yoshlar texnik ijodiyoti» ko'rgazmasida ishtirok etib, faxrli o'rinni olishga muyassar bo'ldi.

Bu inshoat qurilmasi Azot zavodi trubasidan chiqayotgan zararli gazlarni so'rish quvuri orqali so'rib oladi. Tozalash filtrlar yordamida bajariladi. Birinchi filtr uch bosqichli zararli gazlarni 24 foiz miqdorida, ikkinchisi 52 foiz, uchunchi filtr 20 foiz miqdorida, umumiy zararli gazlarni 96 foiz tozalab, atmosferaga chiqaradi. Tutib qolingan gazlar sovutilib yig'ish idishiga to'planadi.

Yosh ixtirochi Shermat Ostonqulovning mazkur qurilmasi ana shu jihatlari bilan diqqatga sazovordir.

***Sher ALI***

## ASRLAR HIKMATI

Ko'plab maqollarni yodlagansiz-a, aziz tengdoshlarim?! Lekin, maqol o'zi nimaligini bilasizmi? Bu so'z – nutqning qaymog'i, suhbatning mag'zi, katta-kichik davralarda aytiladigan gaplarning boli, degani ekan. Maqollar aqlni o'tkirlashtiradi, nutqni ravshan va ta'sirchan qiladi. Hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi. Ular bizga qimmatli maslahatlar berishadi. Masalan, sabrli bo'lish haqida bir qancha maqolalar to'qilgan. Ulardan keng tarqalgani «Sabr tagi – sariq oltin». Chindan ham biror ishingiz bitgunicha sabr-qanoat qilsangiz oxiri hammasi zo'r bo'lishini, aksincha, shoshmashosharlik bo'lgan joyda puxtalik bo'lmasligini kuzatganmisiz?

Xullas, tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo'qki, u maqollarda o'z aksini topmagan bo'lsa! Faqat ularni ko'proq o'qib, mag'zini chaqish kerak! Siz nechta maqol bilasiz? Bu haqida o'ylab ko'ring.

***Yulduz SHORAHMEDOVA,***
***O'zMU jurnalistika fakulteti 2-bosqich talabasi***




Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir yolg'iz ayol ikki o'g'li bilan yasharkan. Ayolning do'ppi tikib topgan puli ro'zg'orga uchma-uch etarkan. Lekin onani ro'zg'or tashvishlaridan ham ko'proq katta o'g'lining xudbinligi qiynar ekan. Uni onaning o'zi hali kichik farzandi dunyoga kelmasidan avval ko'p erkalatib, injiq qilib qo'ygan ekan. Kichik o'g'li esa aksincha, onasini ko'nglini ko'tarishga harakat qilarkan.

Bir kuni kichik o'g'lining olma egisi kelibdi. Qish fasli ekan, uylarida esa olma yo'q.

–O'g'lim, olma yo'g'-u, sabzi yeb qo'ya qol, – debdi ona.

# ASKARLARNING MAQSADI



«Vatanimga xizmat qilaman» nomli ko'rsatuvni ko'rgansiz-a? Jahongir Rasulov ham bolaligidan bu ko'rsatuvni ko'rib, askar yigitlarga havas qilardi. Maktabni bitirgach, Samarqanddagi Oliy harbiy avtomobil qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtiga o'qishga kirdi. U bugun o'zi orzu qilganiday katta leytenant bo'ldi. Ko'rdingizmi, bolalar harbiylarning orzu-havaslari ham o'zlari kabi qat'iy bo'ladi. Ular o'ylagan niyatlarini doimo yuzaga chiqarishga intilib yashaydilar-da! Askarlarimizning eng katta maqsadlari esa Vatanimizni himoya qilish ekanligini yaxshi bilasiz. Chunki, bu aslida barchamizning ezgu niyatimizdir.

*Muhayyo TO'LAGANOVA*





## HARBIYLIK QIZLARGA HAM YARASHADI

O'g'il bolalar orasida askar bo'lishni istamaydiganlari topilmasa kerak. Lekin, Yunusobod tumanidagi 58-maktabda harbiy bo'lishni orzu qilgan qizlar ham o'qishar ekan. 6-sinf o'quvchisi Yusufbek Qodirov askar bo'lish niyatidagi sinfdosh qizlariga qoyil qolar ekan. Axir bu oddiy maktabdagi darslar emas, tartib-intizom ham juda kuchli. Lekin mashg'ulotlar shunday maroqliki, ularni bajarishga kirishib ketganingizni o'zingiz ham sezmay qolasiz.

*QIZLARXON*

*«Katta bobo» bekati*

# HURMAT QILSANG – HURMAT TOPASAN



Aziz bolajonlar!

***Bugungi bekatdagi suhbatimiz bir-birimizga bo'lgan hurmat xususida bo'lishiga nima deysiz? Nega, do'stimizga, ota-onamizga, ustozimizga, xullas, yoshi kattalarga hurmat bajo keltiramiz? Nega ularni o'zimizdan ko'ra ko'proq biladigan, hayot tajribasiga ega bo'lgan insonlar sifatida e'zozlashga harakat qilamiz? Shu xususda hech o'ylab ko'rganmisiz?***

Bunday olib qarasa, bir-birimizga hurmat bildirish oddiy gapdek tuyuladi. Ammo uning zamirida ota-bobolarimiz bizga azaldan o'rgatib kelgan «Agarda sen kimgadir hurmat ko'rsatsang – senga ham shunday hurmat qaytadi»,- degan hikmat yotadi.

Insonlar azaldan bir-birlari bilan inoq bo'lishga, barcha hayot mashaqqatlarini birga hamjihatlikda engishga, og'ir kunlarida ham, quvonchli va baxtiyor damlarda ham bir-birlarining yonida bo'lishga intilib yashaganlar.

Aziz o'g'il qizlarim, hurmat avvalo oiladan boshlanishini unutmang. Birinchi o'rinda siz bilan har doim birga bo'lgan ota-onangiz, aka-ukangiz, opa-singlingizning hurmatini o'z o'rniga qo'ying. Ularning so'zlariga quloq solib, aytganini bajaring. Gap qaytarishni, ularni ranjitadigan ishlar qilishni aslo xayolingizga keltirmang. Agar ularni behurmat qilsangiz, o'zingiz ham hurmatga loyiq bo'lmaysiz.

Ko'cha-ko'yda, maktabda tengdoshlaringizga, ustozlaringizga hurmat bilan munosabatda bo'lishga, ularning dillarini og'ritadigan qiliqlar qilishdan, ortiq gapirishdan o'zingizni tiying. Birovni ig'vo qilib, o'zingizni yomon otliq qilmang. Aytmoqchi bo'lgan gapingiz doimo to'g'ri bo'lsin. Hech kimning nafsoniyatiga tegadigan gap qilmang. Aksincha, shirin muomalada bo'lib, ularnin diliga yoqadigan so'zlar tilingizga chiqsin. Shunga amal qilsangiz, sizga ham shunday javob bo'ladi va siz ham atrofdagilar e'tiboriga tushib, ularning hurmatini qozonasiz. Bu esa sizning oliyjanob inson bo'lib voyaga etishingiz alomati.

*Doimo sizni qamrab olgan umid va orzular zamirida insoniy munosabat yotishi yodingizda bo'lsin. Zeroki, insoniy munosabat o'zaro hurmat evaziga dunyoga keladi. Uni e'zozlab avaylash esa o'z qo'lingizda. Hadeb haqligingizni isbotlashga urinish orqali ham hurmatingizni yo'qotib qo'yishingiz mumkin. Kimgadir yon bosish, uning ko'ngliga qarab ish tutish ham aslida bag'rikeng inson fazilatidir. Agar ana shu xislatni bir umr saqlab qolsangiz va uni yaxshilik yo'lida ishlatsangiz, aminmanki, hayotda aslo qoqilmaysiz.*

***Islom USMONOV***

# QOR YEYDIGAN BOLA

Ha, ha, orangizda qor yeydigan bolalar bor. Tarnovlardagi muzni sindirib oladiganlarga nima deysiz? Kattagina muzni bir zumda yalab tamomlaganda, ular tomoqlari og'rib qolishini o'ylamaydilar. Muxlisa ham qor yeyishni yaxshi ko'radi. U bu yil qor yoqqanida yana xursand bo'ldi. Lekin, bir kuni fizika darsida ustozi qorning qanday paydo bo'lishi-yu, uning tarkibi haqida so'zlab berganidan beri Muxlisa qor yemaydigan bo'ldi. Chunki qor havo harorati 0 darajadan past bo'lganda, bulutlardan muz kristalchalari tarzida yog'ar ekan. Demak, uning tarkibida kimyoviy elementlar bor. Ular bizning organizmimiz uchun zararli. Qolaversa, muzdek qor nafas yo'llarining yallig'lanishiga sabab bo'ladi. Axir isitmangiz ko'tarilib, kun bo'yi o'ralib yotishni istamasangiz kerak?! Shuning uchun siz ham Muxlisa kabi tezda xulosa chiqarib oling. Shunda shamollab qolmaysiz va mazza qilib chang'i uchib, Qorbobo yasab, do'stlaringiz bilan o'ynaysiz.



Ha, aytgancha, siz ham birinchi qor yoqqanida, o'rtoqlaringizga qorxat yozgandirsiz? Bilasizmi, qorxat yozish qadimdan an'anaga aylangan. Odamlar eng yaqin kishilariga maktub yozib, unda o'z istaklarini bayon qilishgan ekan. So'ng, bir-birlariga qordek oppoq tilaklar bildirib, birinchi qor bilan tabriklashgan. Kattalar aytganiday, har birimiz yangi yilga yetganimiz, yoshimizga yosh qo'shilib, umrimiz davom etayotgani uchun shukur qilishimiz kerak. Siz ham, albatta, bu bir yilingiz qanday o'tgani, kelajagingiz uchun nima foydali ishlar qilganingizni o'ylab ko'ring. Keyingi yilga rejalar tuzishni boshlang. Zero, bir yil qancha soat, oylardan iborat, bu damlar aslo behuda o'tmasligi lozim.

*Sayyora JO'RAYEVA*

–Mayli, -deb rozi bo'libdi o'g'il. Onasi omborxonaga kirsa sabzi ham tugaganmish. Lekin, bir dona turp turganmish.

– O'g'lim, sabzi ham tugabdi, – debdi ona xijolat bo'lib. – Istasang, turp bor.

– Mayli, debdi kichik o'g'il, onasini qiynamaslik uchun har galgidek boriga ko'nib. Lekin o'zi yo'q, oti bor, «olma» so'zi aqlsiz katta o'g'liga dastak bo'libdi.

– Menam olma yeyman, – debdi u. Nima bo'lsa ukamga berasiz, menga bermaysiz.

– Olma yo'q, – debdi onasi. Ukang turp yedi.

– Men bilmayman, menga olma topib berasiz, -debdi katta o'g'il.

Onasi qo'shnisinikiga kirib, bitta olma so'rashga majbur bo'libdi. O'g'li esa olmani na onasiga ilinibdi, na ukasiga. Onasiga rahmat ham demay, shoshilib shartta tishlabdi. Olma sal nordon ekan, og'ziga yoqmay, qolganini ochiq derazadan otib yuboribdi. Onasi buni ko'rib, xo'rligi kelib yig'labdi. Chunki, shu aqlsiz o'g'lining ko'ngliga qarab, qo'shniga yalinishga majbur bo'lgan ekan. Noqobil o'g'li esa na mehribon onasining muruvvatini tushunibdi, na osongina qo'lga kirgan olmaning uvolidan qo'rqibdi. Onasining ko'z yoshlarini ham payqamabdi. Qornini to'ydirib, o'ynagani chiqib ketibdi. Kichik o'g'il esa onasining ko'z yoshlarini artib, unga mehribonlik ko'rsatibdi, yumushlariga yordam beribdi. Katta o'g'il o'sha kuni tush ko'ribdi. Tushida onasi unga katta qip-qizil olma beribdi. Olma juda shirin ekan. U olmani «qars» etib tishlashi bilan olma qo'lidan tushib ketibdi. Shu paytda qulog'iga «Olmani chala yesang, hamma ishing chala bo'ladi», degan ovoz eshitilibdi. U hammayoqni, o'tlar orasini, ariq ichini, daraxt tagini qidirib, olmani topa olmabdi. Haligi ovoz esa hamon qulog'i tagida jaranglab turganmish. Olmani axtaraverib uning sillasi quribdi. Hammasini yeyolmaganidan achinib uyg'onib ketibdi. U yana onasiga olma, deb janjal qilmoqchi bo'libdi. Lekin, onasi kasal bo'lib yotgan ekan.

O'sha kuni uyda non tugab qolibdi. Ukasi kichkina ekan. Noiloj qolgan katta o'g'il qo'ni-qo'shnilarning ishiga qarashib, evaziga ikkita non olib kelibdi. Shu kundan boshlab onasi sog'ayguncha, ro'zg'or tashvishi uning zimmasiga tushibdi.

Bir kuni u onasi bir dona olma so'ragan qo'shnisining yumishini bajaribdi. Qo'shnisi unga o'sha nordon olmadan bir lagan beribdi. O'g'il olmalarni uyga olib kiribdi. Ulardan birini og'ziga solibdi. Lekin, bu gal bir tishlab otib yubormabdi, po'chog'i qolguncha ishtaha bilan yebdi.

***Maqsuda EGAMBERDIYEVA***

## JIZZALI NON

Odamlarning yuziday,
Issiq bu yurt nonlari.
Mazalidir onamning,
Jizzali shirmonlari.

Ayniqsa, mitti qizning,
Kulchalari go'zaldir.
Xamir mushtlagan jajji
Qo'lchalari go'zaldir.

Kumushday ibo bilan
Jilva qiladi soy ham.
Samarqandning noniga
O'xshab ketadi oy ham.

## ANOR DONALARI

Bitta uyda mingtadan
Siqilishib yashaydi.
Bir-birin siqib qo'ymas
Yuzi cho'g'day yashnaydi.

Bir anor bag'rin Vatan
Qilmay yo'qdir iloji.
Mevalarning podshosi
Anorning bordir toji.

*Farida TOSHPO'LATOVA,*
*Surxondaryo viloyati,*
*Denov shahridagi 79-o'rta maktabning*
*7-sinf o'quvchisi*



## HAZIL TOPISHMOQ

Usiz yasholmas hech kim,
Chaqaloqlar «buv» deydi.
Katta bo'lgach ular ham,
Bizga o'xshab ... deydi.

*Habibullo NAZAROV,*
*Poytaxtdagi 69-maktabning*
*4-sinf o'quvchisi*




## KICHKINTOYLARGA MOBIL TELEFONI

Xitoyning Syangyan (Gonkong) shahrida boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan mobil telefoni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. U ko'rinishidan o'yinchoqqa o'xshaydi. Ajablanarlisi shundaki,telefonni ishlab chiqarayotgan kompaniya tomonidan tayyorlangan telefonlardan kichkintoylar begona raqamlarga qo'ng'iroq qilolmaydi va bunday raqamlardan chaqiruvlarni ham qabul qila olmaydi.

Mahalliy matbuotning yozishicha, ushbu aloqa vositasiga o'rnatilgan «JPS» tizimi orqali ota-onalar farzandlari qayerda ekanidan xabardor bo'ladi. Bunday telefonning yana bir afzalligi shundaki, u zararli to'lqinlarni nisbatan kam tarqatadi.

## TOSHBAQALARNING UMRI UZUN

Bolalar yaxshi ko'radigan toshbaqalar eng uzoq umr ko'rishar ekan.

Toshbaqalarning 290 turi mavjud bo'lib, ularning 7 xili mamlakatimizda yasharkan. Ular barcha turli kasallik tarqatuvchi infeksiyalarga qarshi kurasha olarkan. Shikastlanishdan tezda tuzalib, uzoq muddat ovqatsiz yashay olarkan.

Marion nomdagi toshbaqa eng uzoq umr ko'rarkan. Ularning biri 152 yoshga kirganligi hujjat bilan qayd qilingan.

Olimlar toshbaqalar qulay sharoit bo'lsa 200, hatto 300 yil umr ko'rishini ta'kidlaydilar.

## SEHRLI BAYRAM

O'lkamizga yangi – 2009 yilning eshik qoqib kelganiga sanoqli kunlar bo'ldi. Yangi yilni ayniqsa, bolajonlar intiq kutishadi. Ana shu sehrli bayram har bir bolaga haqiqiy quvonch olib kelishi esa ko'proq biz kattalarga bog'liq. Toshkent viloyati, Zangiota tarbiya koloniyasi tarbiyalanuvchilariga ham bayram shukuhini ulashish maqsadida «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi hamda Tarona rekords» prodyusserlik markazi hamkorlikda «Assalom, Yangi yil!» bayram tadbirini o'tkazdi. Bayramda jamg'arma tomonidan tarqatilgan esdalik sovg'alarini olib quvongan tarbiyalanuvchilar kayfiyatini estrada yulduzlari ijrosidagi sho'x taronalar yanada ko'tarib yubordi.

«Sog'lom avlod uchun» Xalqaro xayriya jamg'armasi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, «Mehribonlik uylari» tarbiyalanuvchilari, nogiron bolalar salomatligini tiklashga qaratilgan ko'plab xayrli ishlarni amalsha oshirib kelyapti. Shuningdek, ularning qishki ta'til kunlarini maroqli va mazmunli o'tishiga hissa qo'shish maqsadida yozgi va qishki oromgohlarni tashkil etish, ular uchun bayram tadbirlari uyushtirish yaxshi bir an'anaga aylanib qolgan.



## MEHRIBON NIGOH

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bu so'zni tilga olganimizda ilk maktab ostonasi, bolalikning eng aziz onlari yodimizga tushadi. Qo'llarimizdan yetaklab sinf sari boshlagan ustozning mehribon nigohi bir umr ko'z o'ngimizda muhrlanib qolgan.

Ravshanoy Sharipova ham ana shunday sharafli kasbda 16 yildan buyon mehnat qilib kelmoqda.

– Men uchun har tong o'quvchilarimizning «Assalomu alaykum ustoz!», deya atrofimni o'rab olishlaridan ko'ra yuksakroq mukofot yo'qdir, – deya ta'kidlaydi ustoz jilmayib.

– Bugungi tadbir ona tili fani bo'yicha o'tkazilyapti shekilli? – so'raymiz ulardan «So'z turkumlari» deb yozilgan to'rdagi doskaga ishora qilib.

– Maktabimizda o'tkazilayotgan har bitta ochiq dars ana shunday tanlovlar asosida o'tkaziladi. Bunda bolalarning fikrlash qobiliyati mustahkamlanib, bilimi oshadi. Bugun o'zim rahbarlik qilayotgan 4-«A» sinf o'quvchilarining tadbiri. Bolajonlar 4 guruhga bo'lingan. Har bir guruh so'z turkumlarini qanchalik puxta bilishlarini namoyish qilishmoqda.

– Odatda o'g'il bolalarning husnixati unchalik chiroyli bo'lmaydi, shundaymi? – so'raymiz Akromjon isimli bolakaydan.

– Unday emas, bizning sinfimizda hamma bolalar chiroyli yozishga o'rganishgan. Ravshanoy opamiz buni qattiq tekshiradilar...

Samarqand viloyati, Narpay tumanida joylashgan 60-maktabda Ravshanoy opa singari bag'ri keng boshlang'ich sinf o'qituvchilari ko'pchilikni tashkil etadi. Ulardan ota-onalar mamnun bo'lishmoqda.

*Jamila HAYDAROVA*

*Kavsar TURDIYEVA*

## «ALIFBE»DA NECHTA HARF BOR

**Aa**

A harfi ko'p yoshidan,
Alifbening boshidan.
O'xshar ikki oyoqqa,
Tomga, ikki tayoqqa.

* * *

A dan boshlangan kitob
Aziz go'yoki oftob.

* * *

A harfi kutib mehmon,
Bugun yozdi dasturxon.
Bu oydir Avgust oyi,
Ayvondir kutgan joyi.
Atrof atirgul, archa.
Asta yig'ildi barcha.
Agronom va astronavt
Artist hamda argonavt.

Dasturxoni limmo-lim
Qani endi aytar kim?
Qaysi meva va taom
A harfidan boshlanar?

**Bb**

B o'xshar ko'zoynakka
Katta-kichik oynakka

* * *

Olmaning kichik qizi
Doskada uning izi.

* * *

Bizlar, bizlar, bizlarmiz:
Turli rangli qizlarmiz.
Idishlarga joylandik,
So'ng rasmga aylandik.

* * *

Sariq rangli mevadir,
Uni hamma sevadir.
Murabbosi uning zo'r,
Ishonmasang tatib ko'r.

**V v**

O'xshaydi gultuvakka,
Qushga, ipli varrakka.

* * *

Aylanadi pirpirak,
Ayting nimaga kerak?
Sovuq shamol ulashar,
Yozga juda yarashar.

* * *

Doka, quroq goh laylak
Bahordan berib darak.
Osmonda uchar ...

* * *

Osmonda uchar g'ir-g'ir
Samolyotga ukadir.
Qo'nar tog'ning toshiga
Parrak qo'ygan boshiga.

# MAROQLI SAYOHAT



Men tabiat shaydosiman. Uning go'zalliklari-yu mo'jizalaridan hayratlanaman. Ayniqsa, inson qo'li tegmagan, tabiatan qanday yaratilgan bo'lsa, asl holicha qolgan joylarni ko'rsam, behad zavqlanaman. Jonivorlarni ham juda yaxshi ko'raman. Kuchugim, mushugim, hatto tipratikanim ham bor.

Bobojonim Buxoroda yashaydilar. Bir safar ularnikiga mehmonga borganimizda:

– Ertaga seni bir ajoyib joyga olib boraman, – deb qoldilar. Shu kuni qanday tong orttirganimni bilmayman. Mashinada ancha yo'l bosib, nihoyat manzilga yetib keldik. Keyin bilsam, bobom meni Qorovulbozordagi «Jayron» nomli ekomarkazga olib kelgan ekanlar. Qizilqum barxanlariga tutashib ketgan, bir tomoni Amu Buxoro kanali bilan chegaralangan ekomarkazda 33 turdagi sut emizuvchilar, hamda 250 xildan ziyod qushlar emin-erkin yashar ekanlar. Sho'x, o'yinqaroq jayron bolalari bizni xuddi mezbonlardek «qarshi olishdi». Bu qo'riqxona aslida jayronlarni ko'paytirish uchun tashkil qilingan ekan. Dastlab yuz boshga yetar-yetmas bo'lgan jayronlarning soni o'tgan o'ttiz yil mobaynida ming boshga qadar ko'payibdi. Lekin ba'zida ularga oziq yetishmay qolayotgan, qo'riqxona maydoni ham ular uchun biroz torlik qilayotgan ekan. Qo'riqxonada yana qo'ng'ir echkiemarni, Prjevalsk otlarini, turfa ilonlaru yirik suv qushlarini ko'rdim. Bu sayohat hayotimda unitilmas iz qoldirdi.

***Diyora UMAROVA,***
***Toshkent viloyati, Chirchiq shahri***

# TABIATNING MO'JIZASINI QARANG



Maktabdan qaytayotib, yo'l yoqasida xonaki gullar sotayotgan xoladan kaktus gulini sotib oldim. O'zi yam-yashil, dumaloq, tikanlari sap-sariq gulni silab ko'rgim keldi. Qo'limni tekkizishimni bilaman, barmog'imni «chaqib» oldi. O'ziyam yomon og'ridi... Ninachalari barmog'imda qolgan ekan, kechqurun oyim terib tashladilar. Shunaqayam yomon gul bo'ladimi, deb o'yladim. Shunda oyim ehtiyotsizligim uchun gul aybdor emasligini tushuntirdilar. Ular o'sha tikanlari yordamida o'zlarini ayrim hayvonlardan himoya qilishar ekan.

– Qanaqa hayvonlar, axir bu gullar tuvakda, xonaning tokchasida turishadi-ku, – desam, oyijonim menga kaktuslar haqida ko'plab ma'lumotlarni gapirib berdilar:

Kaktuslarning asl vatani Meksikadir. Qadimgi hindular kaktuslarni muqaddas o'simlik deb bilishgan. Ular quruq iqlimga yaxshi moslashgan bo'lib, barglari tikan, tuk va qilga o'xshash bo'lmaganda tanasidagi namlik quyosh haroratida bir zumda bug'lanib ketib, qurib qolgan bo'lardi.

Kaktuslarning tanasi jazirama issiqda ham sersuv bo'lib turadi. Sahroda yo'l yurib charchagan, chanqagan qanchadan-qancha sayyohlarning joniga oro kirgan bu o'simlik. Hatto, ularning hayotini ham saqlab qolgan.

Kaktuslarning 2000 dan ortiq turi bor. Daraxtsimon, butasimon, o'tsimon turlarini Toshkent botanika bog'ida ham ko'rish mumkin. Uning 1 santimetrli mittisi ham, 25 metrli ulkanlari ham bor. Kaktuslarning gullaydigan turlari ham ko'p. Masalan «Tun malikasi» nomli turining gul barglari kattaligi 14 santimetrgacha boradi. Meksikada kaktus mevasidan marmelad tayyorlanadi, daraxti yog'ochidan uylar qurishadi, mebel va chiroyli buyumlar yasashadi. Shunaqa, zararidan foydasi ko'p bu gulning!

Oyim so'zlagan ma'lumotlarni tinglab, tabiatning mo'jizasiga yana bir bor qoyil qoldim. Endi meni «chaqqan» kaktusdan xafa emasman. Balki u ham shoximni sindirmasin, menga ozor bermasin, deya o'zini himoya qilgandir. Nima bo'lganda ham nozik-nihol gullarimiz qatorida turgan kaktuslar ham bizning e'tiborimizga, parvarishimizga muhtoj.

***Zilola MUTALOVA,***
***O'zMU qoshidagi akademik litsey talabasi***

# «BOTANIKA» BOSHQOTIRMASI

Barcha javoblar qaysi harf bilan boshlansa, o'sha harf bilan yakunlanishi lozim.

1. Yirik bargli ko'p yillik o't, zubturum
2. Nigeriyaning g'arbidagi shahar
3. Birlashma, muassasa
4. Dunyodagi eng sersuv daryo
5. Gullar shahri (viloyat)
6. Avvalgi, burungi
7. Quyoshdan himoya qiluvchi oynak
8. Temir-beton inshootlarning sinchi

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| B | | | | | | | B |
| O | | | | | | | O |
| T | | | | | | | T |
| A | | | | | | | A |
| N | | | | | | | N |
| I | | | | | | | I |
| K | | | | | | | K |
| A | | | | | | | A |

***Tuzuvchi: Nodirbek YO'LDOShEV,***
***Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 36-maktab geografiya fani o'qituvchisi***



*Qarang-a aziz bolajonlar, o'rmondagi jonivorlar ham maktabda o'qishar ekan. Ularga musiqa fanidan Paxmoqvoy saboq berarkan.*

*Bu haqiqatmi yo rassomning xayoliy tasavvuri?*

*Buni Aisher Navoiy nomli Nafis san'at litseyi o'quvchisi Maftuna ESHONQULOVAdan so'rash kerak.*

# MAYMUNSIFAT SICHQONLAR



Sichqonlar. Bilsangiz, bu mittigina kemiruvchilarning 1500 ga yaqin turi bor. Angliyalik olim Ch.Eltonning aytishicha, o'rmonning 1 kvadrat kilometrida taxminan 50-60 ga yaqin sichqon yashaydi.

Ular orasida maymunsifat sichqonlar ham bor. Bunday kemiruvchilar Indoneziyaning tropik o'rmonlarida yashashadi. Ular ko'p vaqtini daraxtlarda o'tkazishadi.



Uzun dumli sichqon esa Janubiy-Sharqiy Osiyo, Hindiston, Shri-Lankada istiqomat qiladi. Ular dumining uzunligi o'zlaridan ikki barobar katta bo'lib, mo'yna bilan qoplangan. Umrining asosiy qismini daraxtlarda sayohat qilish bilan o'tkazishadi. Dumi bilan ushlaydigan sichqon, uzun dumli sichqon, maymunsifat sichqonlarning umumiy nomi «Bananli» deb nomlanadi. Dumi bilan ushlaydigan sichqon Avstraliya va Yangi Gvineyada uchraydi. Bu ajoyib sichqonlar yangi o'n ikki yillik muchalni boshlab berishadi va boylik, omad belgisi hisoblanadi.

***Munisa SAIDXO'JAYEVA,***
***poytaxtdagi 69-maktab o'quvchisi***

# TARVUZ

*Tarvuz pishdi dumaloq,*
*Yaproqlari shapaloq.*
*Bo'lib egatning ko'rki,*
*Yonboshladi baqaloq.*
*Tagida qolgan yaproq,*
*Bo'lib qoldi yapaloq.*
*Haybatidan cho'chigan,*
*Bodring otdi shataloq.*

***Sholaziz SHOHIDOYEV,***
***poytaxtdagi 4-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi***



# KATSEL – OZODLIK QUSHI

*Janubiy Amerikaning tropik o'rmonlarida katsel deb nomlanuvchi qush yashaydi. Betakror go'zallik ramzi sifatida qadrlanadigan bu qushni ozodlik va erk ramzi ham deyishadi. Chunki u tutqunlikda yashay olmaydi, qafasga solinsa, nobud bo'ladi.*





***Qashqadaryolik tengdoshingiz Nilufar XOLMATOVAning haqiqiy tabiat shaydosi ekanligi chizgan rasmlaridan ham ko'rinib turibdi***

*Bulung'urlik yoshlar Osiyo chempionatiga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqdalar*

# ULAR SINGAPURGA BORISHADI

***Bugungi kunda mamlaktimizning har bir viloyatida ko'plab sport inshootlari bunyod etilib, yosh sportchilar ixtiyoriga topshirilmoqda. Zamonaviy shart-sharoitlarga ega bu maskanlarda shug'ullanayotgan sportchilar viloyat, respublika, hattoki xalqaro musobaqalarda ham qatnashib, yurtimiz sha'nini munosib himoya qilishmoqda.***



Ana shunday sport maskanlaridan biri – Samarqand viloyati, Bulung'ur tumanidagi «Sport-sog'lomlashtirish markazi» terma jamoamiz safiga munosib yosh sportchilarni yetkazib bermoqda.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Bulung'ur tuman kengashi qoshidagi «Sport-sog'lomlashtirish markazi»ga murabbiy Botir aka Turobov boshchilik qilmoqda.

Sakkiz yoshidan murabbiyi Vladimir Rajnikov qo'lida tarbiya olgan Botir aka sportning bir necha turida mamlakat chempionatlarida munosib ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallagan. 1980–1991-yillar mobaynida erkin kurash bo'yicha 7 karra O'zbekiston chempionligiga erishib, xalqaro musobaqalarda ham qatnashgan. Og'ir atletikaning tosh ko'tarish turi bo'yicha mamlakat birinchiliklarida faxrli o'rinlarni egallagan. Zamonaviy sport turi bo'lmish «Darts» bo'yicha ham mamlakat chempioni. 1991-yildan murabbiylik qilib, yoshlarga sport sirlarini o'rgatib kelmoqda.

Markaz endigina tashkil etilgan paytda Botir akaning qo'lida faqat kurashchi yoshlar (milliy, erkin va yunon-rum kurashi) tarbiyalangan bo'lsa, hozirda sportning og'ir atletika, stol tennisi va boshqa turlari bo'yicha yuzdan ziyod sportchilar shug'ullanishmoqda.





O'tgan yili «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi» va homiylar tomonidan markaz turli xildagi sport anjomlari bilan ta'minlandi. Shundan so'ng bu yerda shug'ullanayotgan yoshlar soni va erishilgan natijalar sezilarli darajada ko'paydi.

Markazda shug'ullanayotgan yoshlar orasida erkin kurash bo'yicha 3 karra O'zbekiston chempioni, xalqaro musobaqalar g'olibi va terma jamoa a'zosi Elyor Ergashev, yunon-rum kurashi bo'yicha Osiyo chempioni, Rossiyadagi qator xalqaro musobaqalar g'olibi, terma jamoa a'zosi Mo'min Abdullayev, viloyat terma jamoasi a'zolari Umid Rahmatov, Shavkat Ahmedov, Farruh Usmonov kabi umidli sportchilarni uchratishimiz mumkin.

Shuningdek, 10-12 yoshli o'quvchilar ham mamlakat chempionatlari sovrindorlari bo'lib, ular markazning umidli sportchilaridir. Sulton Avvalboyev va Muzaffar Saidrasulov yosh bo'lishiga qaramasdan ustozlari ishonchini oqlab kelishmoqda.

Hozirda erkin kurash bo'yicha markaz polvonlari murabbiylari Botir aka va Sharof Mamatqulovlar bilan birgalikda Singapurda bo'lib o'tadigan Osiyo chempionatiga qizg'in tayyorgarlik ko'rishmoqda.

***Sherali NAMOZOV***

# KIM TEZ TOPADI?

***Braziliya mamlakatining qurg'oqchil o'rmonlarida bir ajoyib daraxt o'sadi. Unda bir vaqtning o'zida ham olma, ham yong'oq hosili pishib yetiladi. Daraxtning tanasi 10-12 metr balandlikda, hosili ham talaygina bo'lib, mavsumda bir daraxtdan 12 kg yong'oq, 30 kg chamasida olma terib olinadi. Mahalliy aholi uning barglarini maydalab, tishlarini tozalashda ishlatadi. Endi quyida ta'riflari bayon etilgan so'zlarni toping. Qavsdagi raqam javobning nechta harfdan iboratligini anglatadi.***

*1. Gultuvaklarda ham o'stiriladigan tanasi tikanli Amerika tropiklari o'simligi – (6).*
*2. Gullamay meva tuguvchi daraxt– (5).*
*3. Kuzpishar quruq meva– (5).*
*4. Tok tupi hosili– (4).*

*Javoblarning birinchi harflaridan yuqoridagi g'aroyib daraxtning nomini bilib olasiz.*





***Arrakashlar taxtani yarim metrlik uzunlikdagi bo'laklarga ajratmoqdalar. Har bir bo'lagi uchun bir daqiqadan vaqt sarflaydilar. Ular bu holatda uch metrlik taxtani bo'laklarga ajratish uchun qancha vaqt sarflaydilar?***

***Besh binokor 50 dona g'ishtni 5 daqiqada teradi. 500 dona g'ishtni 50 daqiqada terish uchun nechta binokor zarur bo'ladi?***




Tong YULDUZI

BOSH MUHARRIR: To'lqin HAYITOV

Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi: Zuhra MUHSIMOVA
Navbatchi: Feruza SOYIBJON qizi

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV, Svetlana INOMOVA, Qahramon QURANBOYEV, Jabbor RAZZOQOV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Dilmurod RAHMATILLAYEV, Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

Rassom: Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092

Adadi - 63374
Buyurtma N: J 6704